

O'ZBEK SHE'RIYATIDA O'XSHATISH SAN'ATINING BADIY TALQINI

ARTISTIC INTERPRETATION OF THE ART OF SIMILARITY IN UZBEKISTAN POETRY

Rahmataliyeva Feruzaxon

Farg'ona davlat universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek she'riyatida keng qo'llanadigan badiiy vositalardan biri - o'xshatish san'atining badiiy talqini Guljamol Asqarova va Mehrinoz Abbosova she'riyati orqali ko'rib chiqildi. O'xshatishlarning she'riy matndagi estetik vazifasi, poetic mazmunga ta'siri o'rganildi. O'xshatish san'ati she'riyatning o'ziga xos xususiyati bo'lgan obrazlilik darajasini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Abstract. This article explores the artistic interpretation of simile, one of the most frequently employed stylistic devices in Uzbek poetry, based on the poetic works of Guljamol Asqarova and Mehrinoz Abbosova. The study analyzes the aesthetic functions of similes in poetic texts and their impact on poetic meaning. As an important means of imagery, simile contributes significantly to revealing the figurative nature that constitutes a distinctive feature of poetry.

Kalit so'zlar: O'xshatish, obrazlilik, talqin, badiiy san'at, badiiy tasvir, tashbeh

Keywords: simile, imagery, interpretation, figurative device, artistic representation, tashbih.

Zamonaviy o'zbek she'riyatida eng salmoqli va mahsuldor badiiy san'at bu o'xshatish san'atidir. Yunon olimi Aristotelning "Poetika" asari adabiyotning shakllanishi va nazariy asoslari yoritilgan qimmatli manba hisoblanadi. Unda poeziyaga "o'xshatish san'ati" deb ta'rif beriladi. Poeziya keng ma'noda "badiiy adabiyot" deb, tor ma'noda "she'riyat" deb talqin qilinadi. Darhaqiqat, she'riyat o'xshatishlar orqali voqelikka ko'chadi. O'xshatish san'ati adabiyotda, xususan, she'riyatda eng keng tarqalgan she'riy san'at hisoblanadi. Uning yuzaga kelishida ikki narsa-tushuncha, ikki harakat va holat orasidagi o'xshashlik asos bo'ladi. O'xshatish uchun aniq timsollar foydalanilgan bo'lsa,

haqiqiy o'xshatish, mavhum hodisa yoki tushunchalar ifodalansa majoziy o'xshatish hosil bo'ladi. She'riyatning asosi o'xshatish desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Dilmurod Qur'onovning "Adabiyotshunoslik lug'ati"da mazkur badiiy san'atga quyidagicha ta'rif beriladi: "O'xshatish - tasvir obyektni boshqa narsa hodisaga o'xshatish orqali yorqin va bo'rttirib tasvirlashga asoslangan badiiy tasvir vositasi bo'lib bunda o'xshatilayotgan narsa-hodisalar uchun umumiy belgi-xususiyatlarga tayaniladi" Zamonaviy o'zbek she'riyatida o'z so'zi va uslubiga ega ijodkor, yetuk shoira Guljamol Asqarova she'riyatiga xos bo'lgan o'xshatishlarni sherlar misolida ko'rib chiqsak. Shoira eng oddiy hodisadan ham ulkan tashbehlar yarata oladi.

Mening ko'zlarimdan yosh tinmaganday,

Yomg'irlar tinmabdi Samarqandda ham .

Mazkur misralar orqali ijodkor qalbidan quyilib kelayotgan ko'z yoshlarini ham qadim Samarqand ustiga tinmay yog'ayotgan yomg'irlarga qiyoslaydi. Qachonki shoir qalbi orqali sezsa, millat dardini his qilsa, buyuk shaharlar bilan ham hamnafas bo'la olishiga ishora mavjud. Mazkur she'rdagi lirik hodisa ham aynan shu: shoir botini va tashqi olam uyg'unligi.

Qizg'aldoqlar zabt etib olgach,

Taslim bo'lib, qirlar to'kildi.

Yorijonim, ko'zingga boqsam,

Ko'zimdan yomg'irlar to'kildi.

Mazkur she'rda o'xshatishning go'zal namunasi mavjud. Har bahor sodir bo'luvchi qirga qizg'aldoqlar chiqishi kabi oddiy hodisani shoir ko'zi, lirizmi orqali badiiylikka ko'taradi. Ya'ni qirlar o'zi erkin va mustaqil edi, qizg'aldoqlar chiqdiyu qirlarni zabt etdi. Qirlar ham taslim bo'ldi, "To'kildi" iborasi qirlarga nisbatan ishlatilayotgani sababi qirlar ham tog'lardek mag'rur edi, qizg'aldoqlarga taslim bo'lgandan keyin ular ham xuddiki yerga tomon "to'kildi". Sherning davomida lirik qahramon yorining ko'zlariga tikilganida,

koʻzlaridan yomgʻirlar kabi koʻzyoshlar toʻkilganligi tasviri chiziladi. Bu yerda ham mumtoz adabiyotimizga xos boʻlgan oʻxshatish yani koʻzyoshlarni yomgʻirga oʻxshatilishi mavjud.

Yomgʻir boʻlib savaladi ishq,

Ruhimdagi kirlar toʻkildi.

Mazkur misralarda jonlantirish badiiy sanʼati orqali ishq lirik qahramon ruhini shu qadar azobladiki, savaladiki, undagi barcha kirliklar, chirkinliklar toʻkilib ketdi. Shoir Mehriroz Abbosova ijodida ishqni "ohorlaguvchi" deya taʼriflaydi. Guljamol Asqarovaning yuqoridagi misralarida ham ishqning aynan shu poklash xususiyati aks ettirilgan.

Sheʼriyatimiz osmonida yosh boʻlishiga qaramasdan isteʼdod yulduzi boʻlib porlayotgan yana bir shoir Mehriroz Abbosovadir. Uning sheʼriyatida ohorli tashbehlar talaygina. Zabardast shoir Faxriy yosh shoiraga shunday taʼrif beradi: "Sher yozilmaydi, sodir boʻladi deydi sinchilar. Buni ajoyib shoiramiz Mehrirozning quyma satrlari barobar quyma tashbehlarida ham koʻrish mumkin. Oʻqiysan, zavq tuyasan - yangi. Biroq, yangiligi bois uni begona tutmaysan" Darhaqiqat, Mehriroz Abbosova sheʼriyatida favqulodda portlash mavjud. Ananaviy tasvirlarni ustalik bilan yangilik qolipiga burkab qoʻyadiki, oʻquvchida beixtiyor hayrat yuzaga keladi. Yuqorida Guljamol Asqarovaning yomgʻir va bahor qizgʻaldoqlari toʻgʻrisidagi tashbehlarini koʻrib chiqdik, endi esa Mehriroz Abbosovaning qish mavzusidagi sheʼrini tahlilga tortamiz.

Osmon oq gul sochar, vaʼdalar sochar,

Sodda daraxtlarning koʻnglini xushlab.

Mazkur misralar orqali shoir tabiat hodisasini badiiylilik bilan burkab, oddiy qor yogʻish hodisasini osmonndan oppoq gullar sochilayotganiga qiyoslaydi. Osmon oq gullar bilan birgalikda vadalar ham sochmoqda. Bu vadalar bilan sodda daraxtlarning koʻngli

xush bo'lmoqda. Jonlantirish badiiy sanati orqali osmon va daraxtlar orasidagi voqelik sherga ko'chmoqda.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o'xshatish badiiy san'ati zamonaviy shariyatimizning eng samarali va keng tarqalgan turidir. Mehrinoz Abbosova va Guljamol Asqarova she'riyatida o'xshatish san'ati badiiy tafakkurni ifodalashning muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shoiralar o'xshatishlar orqali inson ruhiyati, lirik kechinmalar va hayotiy voqelikni o'ziga xos poetik talqin etishga erishganlar. Ularning she'rlarida qo'llangan o'xshatishlar milliy qadriyatlar, tabiat unsurlari hamda zamonaviy badiiy tafakkur bilan uyg'unlashgan holda ifoda etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarova G. Uyg'otuvchi alla. Toshkent:Sharq. 2007
2. Solijonov Y. Badiiylik mezonlari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007.
3. Abbosova M. Saylanma she'rlar. – Toshkent: Akademnashr, 2021.
4. Yo'ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006
5. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.